

Единый портал корпоративной информации

Объявления

Xalq Banki

Объявление

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI"

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI AKSIYADORLARI
DIQQATIGA! BILDIRISHNOMA

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat

Xalq banki aksiyadorlari diqqatiga!

BILDIRISHNOMA

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashining 2023-yil 30-oktabrdagi 19-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan 412 006 236 000,0 (to'rt yuz o'n ikki milliard olti million ikki yuz o'ttiz olti ming) so'mlik nominal qiymati 1 000,0 (bir ming) so'm bo'lgan 412 006 236 (to'rt yuz o'n ikki million olti ming ikki yuz o'ttiz olti) dona "Qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror"i 2023-yil 21-dekabrda davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan 2023-yil 30-oktabr holatiga shakllantirilgan bank aksiyadorlari reyestrda mavjud aksiyadorlar bank ustav kapitalidagi o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalarning ulushiga mutanosib ravishda qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqiga ega.

Imtiyozli sotib olish huquqining amal qilish muddati – mazkur bildirishnoma e'lon qilingan kundan e'tiboran 10 (o'n) kun.

Aksiyalarni joylashtirish narxi –1 000 (bir ming) so'm.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni olishi to'g'risida o'zining nomi va joylashgan eri, o'zi oladigan aksiyalarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni bankka yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli.

Aksiyadorlar aksiyalarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

Bankning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100096, Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 46.

Elektron pochta manzili: info@xb.uz (mailto:info@xb.uz)

Ma'lumot uchun telefon: (+99878)120-17-86.

21.12.2023й.

21.12.2023

Источник: <https://openinfo.uz/uz/announce/16598/>

Дата: 07.05.2026